IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

OLTOY XALQNING O ‘ZIGA XOS URF-ODATLARI

Rahmatova Zilolaxon

Farg’ona davlat universiteti filologiya fakulteti 21.76-A guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Anvar Bo‘ronovning “Oltoylar” asarida berilgan ma’lumotlarga tayangan holda turkiy xalqlardan bo’lgan oltoylarning yashash tarzi, o’ziga xos urf-odatlari hamda madaniy hayoti hamda oltoy xalqining to’y marosimini qanday holatda o’tkazilishi haqida ham ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so’zlar

Oltoy, altay, toy, turkiy xalqlar, janubiy oltoylar, shimoliy oltoylar, yurt.

Dunyoda har bir xalq o’ziga xos milliy xususiyatlarga egadir. Billurga ko’zingiz tushsa uning qanchalar nafis ekanligini his qilganingiz kabi biror bir xalq madaniy hayotini o’rgansak ham, shu xalqqa xos xususiyatlari, qadriyatlari, urf-odatlari borligini anglab yetamiz. Xuddi shunday Oltoylar ham takrorlanmas milliy qadriyatlarga ega eng qadimiy xalqlardan biridir.

Xo’sh oltoylar kimlar? Oltoy tilida so’zlashadigan faqat bir xalqmi yoki bir necha xalqlardan birimi? Hozirda o’zlarini “oltoy” deb ataydiganlar turkey tilde gaplashsa, boshqa turkiy xalqlardan qanday farq qiladi? Avvalambor oltoy so’zini ma’nosiga to’xtaladigan bo’lsak, rus tilining lug'atiga ko'ra, “Al” asosiy, “tay” cho'qqi yoki balandlik, mo'g'ul tilida esa boshqa ma'nosi oltin ma’nosini bildiradi. Hozirgacha umumiy nomda ataladigan, aslida esa turkiy xalqlarga mansub teleut, to’langit, qo’mandin, to’balar kabi bir necha elatlardan tarkib topgan oltoy xalqi Oltoy tog’ tizmalari bo’ylab asosan Rossiya Federatsiyasining Oltoy Respublikasida yashovchi turkiy xalqdir.

Oltoylar asosan ikkita katta etnik guruhga bo’linadi,ular janubiy va shimoliy oltoylar:

1. Janubiy guruhdagi oltoylar o’zlarini altay kishisi deb ataydi, yoki “kimsan?” degan savolga “**алтаймын”** deb javob berishadi va“oltoy tatarlari” nomi bilan mashhur.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

2. Shimoliy guruhdagi oltoylar esa asosan shimoliy oltoy lahjasida so'zlashishadi, 1917 yilga qadar shimoliy oltoylar ham ruslar tomonidan "qoramag'iz tatarlar" deb nomlanib kelingan. Biroq shimolliklar ham o'zlarini Oltoy millatiga mansub deb hisoblashgan. Ikkala Oltoy guruhlari bir - biriga madaniy ijtimoiy va lingvistik xususiyatlariga ko'ra judayam yaqin bo'lib, yuzlarining tuzilishi va ko'rinishlari jihatidan bir-biridan deyarli farq qilmaydi.

Oltoylar ko'chmanchi xalq bo'lib, azal-azaldan chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Shu sababli ular qadimdan Oltoy tog'larining bag'rida chorvalarning o'tlashi, qishlashi va ko'payishi uchun to'rt faslda ham o'zlari uchun qulay bo'lgan sharoitlarni yaratishga harakat qilib, o'ziga xos turmush tarzini shakllantirishgan. Bunday hayot tarziga ular shunchalar ko'nikib ketganki, chorvasiz hamda yaylovlarsiz yashashni tasavvur ham qila olmaydilar.

Oltoylar turmushida ularning uylari muhim o'rin tutadi. Ular yashaydigan, ko'pchilik xalqlar "yurt" deb ataydigan uylar, ya'ni kapalar, ikki usulda daraxtlar shoxlari va po'stlog'idan yoki kigiz va matolar bilan qoplanib, maxsus ustalar tomonidan tayyorlandi. Bunday uylar tez va oson yig'ib olinishi hamda yangi joyga ko'chib o'tganda qaytadan o'rnatish uchun judayam qulay bo'lganligi tufayli, chorvadorlar hayotida juda qo'l keladi.

Oltoyda yurtlarni qadim davrlardanoq, aniq sharqqa qaratib qurib va tikish odati mavjud bo'lib , bunday uylardan vaqtni aniqlash maqsadida ham foydalanilgan. Ichkarisidagi qubbasimon dastaklar aniq tartibda joylashtirilgan va ular vaqt oraliqlarini belgilab bergan. Oltoylar lafzida "quyosh otning yo'li qadar ko'tarilganda, quyoshning birinchi nurlari gumbazsimon tutun chiquvchi mo'rcha — changarakdan kirib ichkarini yoritsa", yurt to'g'ri tikilgan, deb hisoblangan.

Oltoyliklarning iste'mol qiladigan taomlari ham bir qadriyat hisoblanib, ular asosan go'shtli va qatiqli taom(ash)larni juda xush ko'rib tayyorlashadi. Oltoy xalqi shunchalik ko'p sut va qatiqli taomlarni tayyorlashi mumkinki, ularni sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi. Ammo ulardan eng ko'p tarqalgan taomlar qurut, pishloq uni pishtaq, ayron va arpa talqonni talqan deb nomlanadiganlarni qo'shib tayyorlangan taom "ash" hisoblangan.

Oltoylarning turmush tarzida ovchilik ham muhim o'rin tutadi. Ovchilarda o'rmon, tog' va cho'l hududlarida ov qilish uchun alohida uslublar shakllangan. Qariyalar yoshlarga ovchilik va qurol tutish sirlaridan boxabar qilishadi.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Oltoylar — oilaparvar xalq hisoblanadi. O'zbek millati uchun oila muqaddas hisoblangani kabi oltoylar uchun ham oila bir ne'mat hisoblanadi. Shu sababdan ularning oilaviy-maishiy marosimlarni oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga o'rgatish, qarindosh-urug'chilik an'analarini davom ettirish maqsadida o'tkaziladi. Bu millatda boshqa millatlarga nisbatan qadimiy odatlar ko'proq saqlanib qolgan. Shunga ko'ra Oltoy ahli to'y marosimlarini boshlashdan oldin ajdodlarni rozi qilish marosimini o'tkazishadi. Bu xalqlarda oila mustahkam dargoh hisoblanadi. Bunga sabab oilada erkak kishi shu oilaning moddiyatiga, ayol esa oiladagi uy-ro'zg'or, farzand tarbiyasiga mas'uldir, shuning uchun oltoylarda oilalar umuman buzilmaydi.

Oltoy millatidagi asosiy hamda qadimiy marosimlardan biri to'y marosimidir. Oltoy tilida ham to'y xuddi o'zbek tilidagi kabi «to'y» (yozilishi—toy) deb nomlanadi.Ularda ham «ism qo'yish», «beshikka solish», «beshikkerti», «beshik to'yi», «tirnoq oldi», «soch olish to'yi», «ilk qadam», «muchal yoshi», «nikoh to'yi»kabi marosimlar bor. Faqat islomiy «aqiqa», va «sunnat to'y»lar ularga begona. Oltoy to'ylari o'zbek to'ylaridan judayam katta farq qiladi. Oltoylarda qadimdan bolalar beshikdagi paytidayoq unashtirib qo'yiladi yoki 10-12 yoshlik vaqtida ularning taqdiri belgilanadi. Oltoy elide to'ylar 4 bosqichda o'tqazilgan. Ular :

1. Sovchilik
2. To'yga tayyorgarlik
3. To'y
4. To'ydan keyingi marosimlar

O'zbek xalqida ham shunga o'xshash marosimlar bor. Lekin oltoylarda bunday an'analar to'liqligicha saqlanib qolingan. Bunga yaqqol misol, kelin tomonga kuyov tomon haligacha "qalin" to'laydi hamda to'ydan keyin kelin farzand ko'rmaguncha kuyov tomonni oila a'zosi hisoblanmagan. Oltoy xalqida qadimdan saqlanib qolgan urf-odat bor, ular hech qachon oilasidan nolishmagan, agar nolishsa, bu yomon holat hisoblangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oltoy xalqi ham o'zbek xalqiga yaqin xalqdir. Oltoy xalqi o'ziga xos marosimlari bilan insonlarni o'ziga jalb qilib qo'yadi. Oltoy millati ham o'zbek millati ham barchamiz turkiy xalqlar tarkibiga kiramiz, shu tufayli bir-birimizga xalqlar aro munosabatda ham qadimiy urf-odatlarda ham birlikni xis qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

1. A. Bo'ronov. Oltoylar.Toshkent, "Muharrir nashriyoti" 2017.
2. A. Abdurahmonov. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, "Yangi asr avlodi" 2005. 153-154-b.
3. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1318-1322.

WORDLY
KNOWLEDGE